



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi huquqiy
maktabgacha ta'lim agentligi

_____ning
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi
_____ -maktabgacha ta'lim tashkiloti
katta murabbiy tarbiyachisi

_____ning
takomillashgan "Ilk qadam" o'quv
_____ masturi asosida

"Biz yosh sportchilarmiz"
mavzusida tashkillangan

**FAOLIYAT
ISHLANMASI**

(Iyul oyining 2-haftasi)



veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant dos. formatda beriladi.

Katta guruhlarga iyul oyi 2-hafta "Biz yosh sportchilarmiz" mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT OILMANG.

Guruh: Katta guruhlar uchun

Oy mavzusi: Quvnoq yoz

Hafta mavzusi: Biz yosh sportchilarmiz

Maqsad:

Ta'limiy – Bolalarning O'zbekiston sportchilari haqidagi bilimlari oshirish. Bolalarga o'z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Sport turlari, ularning salomatlik uchun ahamiyati to'g'risida tushunchalarini kengaytirish.

Tarbiyaviy – sog'lom bo'lish, o'ziga etiborli bo'lish istagini tarbiyalash. Sog'lom turmush tarziga odatlanishni singdirish. O'z salomatligi uchun mas'uliyat hissinı tarbiyalash va bo'lgan qiziqishni oshirish.

Rivojlantiruvchi – olingan bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish. O'z fikrlashni va nutqni rivojlantirish.

Kutilayotgan natija: O'zbekiston sportchilari haqida bilimlari oshadi. Sport turlari, ularning turli-tumanligi va har bir sport turning o'ziga xos xususiyati haqida biladilar. O'z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi tushunchalarini mustahkamlanadi. Sportning salomatlik uchun ahamiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar. Sog'lom bo'lish, o'ziga etiborli bo'lish istagi tarbiyalanadi. Sog'lom turmush tarziga odatlanadilar. O'z salomatligi uchun mas'uliyat hissi ortadi.

Kerakli jixozlar:

1. Sportchilardan Hasanboy Do'stmatov, Aktena Murodova, G'aziziyev, Fazliddin G'oyibnazarov, Shaxram G'iyosov, Ruslan Nuriddin va boshqa sportchilarning suratlari yoki monitor orqali ko'rsatish uchun AKT.
2. Sportchilarning: chavandoz, kurashchi, yulduz gimnastikachi, tennischi, langarchi, mergan, yengil atletikachi, shaxmatchi, futbolchi, xokkeychi, velopoygachilarning kiyimlari va kerakli jihozlar.

(Musıqa sadosi ostida sport kiyimida zalga kirishadi)

Boshlovchi:

Assalom, bolajonlar!
Shirintoy, qaqajonlar!
Siz istiqlol erka
Yurtimizning

Sog'lom bo'lish, o'ziga etiborli bo'lish, o'z tanasining shaxsiy gigiyenasiga rioya qilish zarurati haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Sport turlari, ularning salomatlik uchun ahamiyati to'g'risida tushunchalarini kengaytirish.

Hur Vatandoshim!
Unib, o'sgan, ulg'ayib,
Vatan mehrin ilg'agan.

Ko'nglimiz muddaosi,
Doimo sog'lom bo'ling.
Botir bo'ling, pahlavon,
Faxr etsin O'zbekiston!

Assalomu - alaykum aziz bolajonlar. Bugun siz bilan uchrashishga Polvonjon va Sog'lomjon mehmon bo'lib kelgan.

(Musıqa sadosi ostida Polvonjon va Sog'lomjon kirib keladilar, salomlashadilar).

Polvonjon: Salom bolajonlar! Siz o'sib, ulg'ayib, pahlavon bo'lishingiz, el yurtga posbon bo'lishingiz kerak.

Sog'lomjon: Buning uchun siz avvalambor sog'lom bo'lishingiz kerak. Sog'lom bo'lish uchun tozalikka rioya qilishingiz kerak.



Qanday yaxshi, bolalar,
Tozalik, orastalik.
Go`zal xulq, odob bilan,
Hamisha payvastalik.

Sahar turib uyqudan,
Muzday suvda yuz yuvmoq.
Qiziguncha to badan,
Yo`lakchada yugurmoq.

Polvonjon: “Bir-ikki” – deb egilib,
Mashqlar qilsangiz yana,
Shahd bilan ko`krak kerib,
Yursangiz yayrar tana.



Ozoda-yu orasta,
Ko`rkam bo`ling, sog` bo`ling,
Ko`rgan bo`lsin havasda,
Doim kongli chog` bo`ling!

Boshlovchi: Bizning bolajonlar kelajakda mashhur sportchilarga ayloqchi. Chunki sport salomatlikni mustahkamlash bilan birga har qaysi davlatni rivojlantirish uchun zarur qiladi. Buning uchun Bolajonlarimiz qanday tayyorgarlik ko`rayotganliklarini bilish kerak.

(Musika sadosi yangraydi, davraga chiqqanlar, polvon kiradi)

Bola: Ot yeldirsa **chavandoz**,
Kimlar qilmaydi havas.
Uloq, ko`pkari, poyga,
Bizlarga otameros.

Alpomish bobomizning
Boychibori bizlarda.
G`ayrati, shijoati,
Nomus – ori bizlarda.

Tarab tulpor yolini,
To`siqlardan o`tganini
Ko`zlab yurt
Maqsadlarga yetganini

Bola: **Kurashimiz** dovrug` soldi,
Butun jahonga.
Olam ahli ofarin der,
G`olib polvonga.

Yelkamiz yerga tegmas,
Biz botirtoylar,
Shon-u sharaf keltiramiz,
O`zbekistonga!



Bola: Polvonlar, hoy polvonlar,
Eldan olqish olganlar,
Qudratingiz siri ne?
So`rar hayron qolganlar.

Polvonlar der: - Kuch berar,
Ona diyor tuprog`I,
Hilpirab tursa agar,
Dilda Vatan bayrog`i.

Yurtning sha`n, dovrug`in deb
Tushsa agar maydonga.
G`oliblik toji nasib
Bo`lar o`sha polvonga!

Polvonjon: Barakalla, bolajonlar! Yurtimiz iste`dodli farzandlari bilan, g` sport
maydonlaridagi katta yutuqlari bilan faxrlanadi. Siz sportchilardan kimlarni bilasiz?
(Sportchilarning suratlarini ko`tarib musiqa sadosi ostida bolalar o`ynashadi)

Bola: Hasanboy Do`stmatov.

Bola: Bektemir Meliqo`ziyev.

Bola: Fazliddin G`oyibnazarov.

Bola: Shaxram G`iyosov.


Bola: Ruslan Nuriddinov.....

Sog`lomjon: Barakalla, siz ham sport bilan chin dildan shug`ullanganingiz albatta chempion bo`lasiz.
(Musiqa yangrab davraga gimnastikachi, tennischi, langarchi, futbolchilarda she`rga oid jixozlar
bilan kirishadi)

Bola: Langar cho`pdan madad olib,
Ko`kka sakraymiz.
Balandlikni zabt etamiz,
Tikka sakraymiz.
Landovur va lapashanglar
Bizga do`st emas.
Biz hamisha epchil, chaqqo
Mardni yoqlaymiz.

Bola: Tennisning barcha turi
Bizlar uchun qadrdon.
“Prezident turniri”
Dunyo bo`ylab
Hozircha bizlar voris
Zafar quchgan avlodga.
Bahsga chorlar kordimiz,
Keling O`zbekistonga!

Bola: Go`zallik, nafasat
Bu – **gimnastika.**
Ko`rkamlik, nazokat
Bu – gimnastika!
Chapdastlik, chaqqonlik,
Gimnastikadir.
Zukko va epchillar,
Topajak qadr!



Gimnastikachi raqsi. Sog`lomjon:

O`yinlarning xili ko`p
Harakatli, ta`sirchan.
Ba`zan yolg`iz, ba`zan to`p,
Bahsga tushamiz chechan.

Polvonjon:

“Oq terakmi, ko`k terak”,
“Quvlashmachoq” yo “Beshtosh”,
Hammasi birdek kerak,
Salomatlikka yo`ldosh.

Boshlovchi:

Yurtimizda el sevgan,
O`yinlar ko`p olqishda.
Keling birga o`ynaymiz,
Bir bellashib ko`ramiz.

O`yin: “Arqon tortar”.

(Davraga mergan, yengil atletikachi, shaxmatchi, qilichboz kiradi).

Bola: Mohir mergan to`g`ri olar

Mudom nishonni.
Tiyrakligi, zirakligi
Baxsh etar shonni.
Ko`rgan qoyil qolar doim,
“Balli, mergan!”, - der.
“O`z ishiga chin yurakdan
Mehrini bergan”, - der.

Bola: Yengil, yengil deydilar,
Yengil emasdir zinhor.

Yengil atletikada,
Og`ir jihatlar bisyor.
Sakrash, yugurib – yelish,
Yo yadro uloqtirish.
Marafonda shamoldek,
Marraga yetib kelish.
Uzoqlikka, balandga,
Sakrash-u kross – bari,
Bilsangiz, bolajonlar,
Shu sport talablarini.

Bola: Shaxmatni qadim
Shatranj degan ekanlar.
O`yinmas, aqlimizga
Qo`shilgan ganj deganlar.
Bu o`yinni shohlar-u
Fuqaro birdek suygan.
Saroy-u o`tovlarda,
Hamma birdek zavq tuygan.
O`zbek o`g`li Rustambek,
Jahonning chempioni.
Shaxmat tojini kiydi,
Qoyil qilib dunyoni.



Bola: Qilichbozlik ko`hna, qadim,
Ermak emas.
Qilichbozlik – har yigitga
Ko`rk-u havas.
Bugun esa sportning bu
Go`zal turi,
Barchasidan qiziqarli
Va mashhuri.



Sog`lomjon:
Sportni suyib jondan,
Bardam, salomat bo`ling.



Polvonjon:
Bahra olib har ondan,
Oqil, alpqomat bo`ling!
Keling bolajonlar, bir o`yin o`ynaymiz. (O`yinning shartini tushuntiradi).

Oyin: “Kim chaqqon”
(Davraga futbolchi, xokkeychi, velopoygachi kiradi).

Bola: Xokkeyni kim bilmaydi,
Kim ham havas qilmaydi?!
Egri gavron suyanib,
Muz ustida sirpanib,
Shaybani olib chaqqon,
Raqibni qilib hayron,
Darvozasiga simto`r,
Gollar ursang – qanday zo`r!
Qayga borsang – sen mashhur,
“Yashavor, qandingni ur!”
Chet elliklar der: “O – key!”
Hammasidan zo`r xokkey!



Bola: Velosiped deganlari –
Uchqur ot ekan.

Velosport – hech tehgi yo`q
Bir hayot ekan.
Qo`shg`ildirak sohiblari
Velopoygada.

Kerak bo`lsa chiqib kelar
Hatto Oyga – da.
Bu poyga hech tinim
To`xtamas bir zum.

Manzillari olis – olis,
Parij, London, Rum....

Bola: Sport – tinchlikka posbon,
Futbol esa qanotdir.
Unda muxlis keng jahon,
Zavqidan dillar shoddir.
Futbol bilan dunyoga,
Tanilgan ne ellar bor.
Yurt sharafin oqlagan,
O`t yurakli sherlar bor.



Futbolni sevar bizda,
Barcha ota – onalar.
Chiqsin, der o`zimizdan,
Pele, Maradonalar!

Sog`lomjon:

Jasur bo`lmoq uchun doim
G`ayrat kerakdir.
Kuch kerakdir, jur`at kerak,
Yurak kerakdir.

Polvonjon:

Jism-u jonim sog` - omon,
Bo`lsin desang gar,
Bilgin, do`stim, salomatlik –
SPORT demakdir!



Shunday dovyurak bolajonlarga bizning ajoyib sovg`amiz bor. Qani saflaning.

(Musiqa sadosi yangrab bolalar yarim aylana bo`lib turadilar. Ragbat sifatida ularni ishtirokchilarga medallar topshiradilar).

Bolalar:

Biz hali sizni ko`p,
Hayron qilamiz.
Elimiz dovrug`in
Doston qilamiz!



Til va nutq

Mavzu: K.Chuykovskiyning “Moydodir” ertagini rasm orqali ijodiy hikoya qilish. Maqsad: bolalar “Moydodir” ertagini mustaqil so`zlab bera oladilar, nutqi rivojlanadi. Ular o`z fikrlari haqida suxbatlasha oladilar. O`z fikrlari bilan o`rtoqlashadilar.

Kerakli jihozlar: “Moydodir” ertagiga mos rasmlar, ertak kitobi, o`yinchoqlar, qog`oz, qalamlar, AKT.

Faoliyatning borishi:


“Moydodir” ertak kitobini tomosha qilish.

“Moydodir” ertagini hikoya qilish.

“Nima ortiqcha, nega?”, “Xatosini top” o`yinlari.

Qo`shimcha: Bolalarga nima ortiqcha ekanligini ko`rsatish uchun “Moydodir” multfilmini AKT orqali tomosha qilish.

Alohida e`tibor qaratiladi: nutqni ravo...



Fan va tabiat

Mavzu: Yosh quruvchilar uchun sharbatlar tayyorlash

Maqsad: bolalar mevalarning vitamininga boyligi, mevalar sharbati sog‘liq uchun foydaligini amaliy ish va suhbat orqali tasdiqlaydilar.

Kerakli jihozlar: suratli albomlar, mevalar, taxtakach, pichoq, likopchalar, sharbat chiqarish apparati Faoliyatning olib borishi:

Mevalar tasirlangan albomni kuzatish.

Mevalar va ularning vitamininga boy ekanligi haqida suhbat.

Mevalarni yuvib, taxtakach, pichoq va likopchalarni hozirlash.

Mevalarni kesish. Ularning urug‘larini ajratish.

Mevalarning rangi, shakli, urug‘ini kuzatish, ta‘mini ta‘tib izohlash.

Mevalardan sharbat tayyorlash.

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi markazidagi “quruvchilar”ni sharbat bilan mehmon qilish.

Qo‘shimcha qism: chiqarilgan sharbatlardan boshqa guruh bolalarini mehmon qilish. Alohida e‘tibor qaratiladi: hayot xavfsizligi qoidalari va gigenaga rioya qilish.



San‘at

Mavzu: Biz badantarbiya qilamiz

Maqsad: bolalar sog‘lom turmush tarzini rasmlarda ifodalashni o‘rganadilar, ranglarni ajratish bo‘yicha bilimlari mustahkamlanadi, qo‘l motorikasi rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: mavzu bo‘yicha syujetli rasmlar, oq qog‘oz, rangli qalamlar, bo‘yoqlar, mo‘yqalam, salftkalar.

Faoliyatni borishi:

Mavzuga oid rasmlarni tomosha qilish.

Ertalabki badantarbiya mashqlarining holatlaridan birontasini tanlab uni chizi o‘ni rejalashtirish

Ijodiy faoliyat.

Ishlar namoyishi.

Qo‘shimcha: bolalar bilan “Sog‘lom tanda - sog‘ aql” mavzusida ko‘rgazma tashkil qilish
Qurish, yasash va matematika Mavzu: Stadion quramiz.

Maqsad: bolalar kubiklar va qurilish materiallaridan stadion qura oladilar, to‘g‘ri to‘rtburchak shakli xaqida tushunchalarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: turli o‘lchamdagi to‘g‘ri to‘rtburchaklar, geometrik shakllar, AKT. Faoliyatni borishi:

Stadionlar tasvirlangan slaydlarni ko‘rish.

Bolalar bilan stadion qurishni rejalashtirish.

Qurilish materiallaridan stadion qurish.

Ishlar taqdimoti, rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: geometrik shakllar va mayda o‘yinchoqlardan foydalanish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: jamoa bo‘lib ishlash, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.

Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish Mavzu: Sport buyumlari do‘koni

Maqsad: bolalar sport buyumlari do‘konida oldi-sotdi muomalasi orqali sport buyumlarini tanib, ularning turlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Kerakli jihozlar: sport jihozlari, sport jihozlarini qo‘yish uchun peshtaxta, kassa, kassa yuvatgichi.

Faoliyatni borishi:

Turli do‘konlar tasvirlangan rasmlar va slaydlarni ko‘rib chiqish (o‘yinchoqlar, sport jihozlari, poyabzal va sport do‘konlari).

Rollarni taqsimlash, o‘yinga tayyorgarlik ko‘rish.

O‘yin jarayoni.

O‘yin yakuni. Rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: o‘zbek sportchilarining rasmlarini tomosha qilishlarini ko‘rsatish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘yin vaqtida bolalar nutqi, ijro mahorati.

